

Talabalar til ko'nikmalarini rivojlantirishda ijodiy yozuvning o'rni

Xayitboyev Muslim Xamidullayevich
muslimxayitboyev25@gmail.com
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar til ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida ijodiy yozuvning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ijodiy yozuv nafaqat tilni o'zlashtirishning samarali usuli, balki talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini, mustaqil ijodkorlik salohiyatini va estetik didini rivojlantirish vositasi sifatida ham muhim sanaladi. Tadqiqotda ijodiy yozuv texnikalari, uni o'qitish metodlari va samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, talabalar uchun ijodiy yozuv mashg'ulotlarini tashkil etishning afzalliklari va natijalari tahlil qilinib, ilg'or pedagogik tajribalar asosida tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: ijodiy yozuv, til ko'nikmalari, talabalar, o'qitish metodlari, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, pedagogik tajriba.

The role of creative writing in the development of students' language skills

Xayitboyev Muslim Xamidullayevich
muslimxayitboyev25@gmail.com
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annotation. This article explores the role and significance of creative writing in developing students' language skills. Creative writing is not only an effective method for language acquisition but also a tool for enhancing students' logical thinking, independent creativity, and aesthetic appreciation. The study examines creative writing techniques, teaching methodologies, and factors influencing its effectiveness. Additionally, the benefits and outcomes of organizing creative writing activities for students are analyzed, and recommendations are provided based on advanced pedagogical practices.

Keywords: creative writing, language skills, students, teaching methods, logical thinking, creativity, pedagogical experience.

Роль творческого письма в развитии языковых навыков студентов

Xayitboyev Muslim Xamidullayevich
muslimxayitboyev25@gmail.com
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение творческого письма в развитии языковых навыков студентов. Творческое письмо является не только эффективным методом освоения языка, но и инструментом для развития логического мышления, самостоятельного творчества и эстетического восприятия студентов. В исследовании анализируются техники творческого письма, методики преподавания и факторы, влияющие на его эффективность. Кроме того, рассматриваются преимущества и результаты организации творческих письменных занятий для студентов, а также предлагаются рекомендации, основанные на передовой педагогической практике.

Ключевые слова: творческое письмо, языковые навыки, студенты, методы обучения, логическое мышление, творчество, педагогический опыт.

Til o'rganish jarayonida ijodiy yozuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul nafaqat grammatik va leksik bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, balki talabalar nutq madaniyatini shakllantirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ijodiy tafakkurni kuchaytirish imkonini ham beradi. Ingliz tiliga va uni yaxshi o'zlashtirgan mutaxassislariga talab katta bo'lgan zamonaviy dunyoda uni har tomonlama o'rganish barcha ko'nikmalarni puxta shakllantirishni taqozo etadi. Ingliz tilini til tashuvchilari darajasida yoki unga yaqin darajada o'zlashtirish uchun o'qituvchilar talabalarining, ta'lim jarayonida barcha til ko'nikmalarini o'zlashtirishga qaratilgan mashq, topshiriq va darslarni tashkil qilishi va til o'rganish jarayonida an'anaviy o'qituvchi emas, balki fasilitator (ko'mak beruvchi) rolini bajarishi kerak bo'ladi. Ushbu til ko'nikmalari: tinglab tushunish (listening), gapirish (speaking), o'qish (reading), yozish (writing). Til o'rganishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun ushbu ko'nikmalarning har birining o'rni katta. Shunday ekan, ularni o'zlashtirish va rivojlantirish bugungi kunning zaruriy vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan o'zbek yoshlari bu tilni puxta o'zlashtirishlari va undan to'g'ri foydalana oladigan mutaxassislar bo'lib yetishishlari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ana shu zaruratni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida, jumladan, shunday deyiladi: "Buyuk mutafakkir shoirimiz Mir Alisher Navoiy o'z davrida yoshlarga murojaat qilib, "Quyoshlig' istasang kasbi kamol et", deb yozganlar. Chindan ham, odamlarga quyoshdek beminnat nur taratishni, yaxshilik qilishni istaydigan inson, kamolotga intilib, turli ilm va kasb-hunarlarini o'zlashtirishi lozim. (Mirziyoev, 2020)

Hozirgi davrda xorijiy tillarni mukammal o'rganmasdan turib, buyuk bobomiz aytgan ana shunday marralarga erishib bo'lmaydi, desak, adashmagan bo'lamiz.

Til o'rganish jarayoni faqat grammatikani o'rganish va so'z yodlash bilan cheklanib qolmaydi. Til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ijodiy yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ijodiy yozuv talabalarining lug'at boyligini oshirish, fikrni aniq va ravon ifodalash, mantiqiy tafakkurni shakllantirish hamda tilni amaliy qo'llashda katta rol o'ynaydi. Ushbu maqolada ijodiy yozuvning talabalar uchun qanday foydali ekanligi hamda uning til o'rganish jarayonidagi o'rniga to'xtalamiz.

Ijodiy yozuvning til ko'nikmalariga ta'siri

Birinchidan, ijodiy yozuv talabalarining so'z boyligini oshirishga yordam beradi. Hikoya, insho yoki esse yozish jarayonida talabalar yangi so'z va iboralarni o'rganadilar, ularni to'g'ri ishlatishni o'rganishadi. Bu esa nutq boyligi oshishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ijodiy yozuv talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. O'z fikrlarini yozma shaklda ifodalash jarayonida talabalar fikrlarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirishga, ularni asoslashga harakat qilishadi. Bu esa nafaqat yozma, balki og'zaki nutq rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, ijodiy yozuv yordamida talabalar tilni amaliy qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'rgangan grammatik qoidalar va so'zlar bevosita matn yozish jarayonida qo'llaniladi. Bu esa ularning ongli ravishda tilni o'rganishiga va mustahkamlashiga yordam beradi.

Ijodiy yozuvni rivojlantirish usullari

1. **Erkin yozish mashqlari** – Talabalar belgilangan vaqt davomida erkin yozish orqali o'z fikrlarini ochiq ifodalashga o'rganadilar. Bu talabalarni yozish jarayoniga jalb qilish va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali usuldir. Bu mashqlar o'quvchilarga o'z fikrlarini hech qanday cheklovlarsiz bayon etish imkonini beradi va yozma nutqni tabiiy ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Erkin yozish mashqlarining afzalliklari

✔ **Fikrlar oqimini erkin ifodalash** – Talabalar o'z fikrlarini tahlil qilish yoki tuzatish haqida o'ylamasdan yozadilar.

✔ **Ijodiy fikrlashni rag'batlantirish** – Hech qanday cheklovlar bo'lmagani sababli, talabalar o'z tasavvurlaridan to'liq foydalanadilar.

✔ **Yozishdan qo‘rqishni yengish** – Yozuv jarayonida xatolar qilishdan qo‘rqmaslik talabalarni yanada dadil yozishga undaydi.

✔ **Tilni avtomatik o‘zlashtirish** – Doimiy yozish orqali talabalar grammatik va stilistik ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar.

Erkin yozish mashqlarining turlari

✔ **Vaqt chegarasi bilan yozish** – Talabalarga ma’lum bir vaqt (5-10 daqiqa) beriladi va ular shu vaqt davomida to‘xtamasdan yozishlari kerak.

✔ **Mavzu asosida yozish** – Talabalarga mavzu yoki rasm beriladi va ular shu asosida erkin fikr yuritadilar.

✔ **So‘z assotsiatsiyalari** – Bir nechta so‘z berilib, talabalar ularga asoslanib qisqa hikoya yoki paragraf yozadilar.

✔ **Shaxsiy kundalik yuritish** – Har kuni biror mavzuda fikr yozish talabalarning doimiy yozuv amaliyotini shakllantiradi. (Vandergrift, 2003)

Erkin yozish usuli talabalarni ijodiy fikrlashga va o‘z fikrlarini bemalol ifodalashga o‘rgatadi. Shu sababli, bu usulni ta’lim jarayoniga faol qo‘shish tavsiya etiladi.

2. **Jurnal va kundalik yuritish** – Kundalik yozuvlar talabalar nutq va yozuv malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Jurnal va kundalik yuritish – talabalar til ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu mashq usuli nafaqat yozma nutqni rivojlantiradi, balki mantiqiy fikrlash, his-tuyg‘ularni ifodalash va ijodiy tafakkurni shakllantirishga ham yordam beradi.

Jurnal va kundalik yuritishning afzalliklari

✔ **Doimiy yozish amaliyoti** – Har kuni yozish orqali talabalar o‘z til bilimlarini mustahkamlaydilar.

✔ **So‘z boyligini oshirish** – Kundalik va jurnal yuritish yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtirishga imkon beradi.

✔ **Fikrlarni aniq ifodalash** – Talabalar fikrlarini izchil va mantiqiy bayon qilishni o‘rganadilar.

✔ **Shaxsiy o‘shish va o‘zini tahlil qilish** – Jurnal yuritish orqali talabalar o‘z fikrlarini chuqur o‘rganib, o‘zlarini rivojlantirishlari mumkin.

✔ **Yozishdan qo‘rqishni yengish** – Har kuni erkin yozish talabalarning yozma nutqga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

3. **Hikoya va esse yozish** – Badiiy va ilmiy-ommabop mavzularda yozilgan matnlar talabalar nutqini boyitadi. talabalar til ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu mashq usuli nafaqat yozma nutqni rivojlantiradi, balki mantiqiy fikrlash, his-tuyg‘ularni ifodalash va ijodiy tafakkurni shakllantirishga ham yordam beradi. (Flowerdew, 1995)

Jurnal va kundalik yuritishning afzalliklari

✔ **Doimiy yozish amaliyoti** – Har kuni yozish orqali talabalar o‘z til bilimlarini mustahkamlaydilar.

✔ **So‘z boyligini oshirish** – Kundalik va jurnal yuritish yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtirishga imkon beradi.

✔ **Fikrlarni aniq ifodalash** – Talabalar fikrlarini izchil va mantiqiy bayon qilishni o‘rganadilar.

✔ **Shaxsiy o‘shish va o‘zini tahlil qilish** – Jurnal yuritish orqali talabalar o‘z fikrlarini chuqur o‘rganib, o‘zlarini rivojlantirishlari mumkin.

✔ **Yozishdan qo‘rqishni yengish** – Har kuni erkin yozish talabalarning yozma nutqga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

She'r va dramatik sahnalar yaratish – Poeziya va sahna asarlari talabalar ijodkorligini kuchaytiradi va ularni yanada faol bo'lishga undaydi. Til o'rganishda ijodiy yozuvning muhim yo'nalishlaridan biri she'r va dramatik sahnalar yozishdir. Bu usul talabalar nutqini boyitish, emotsional ifodani kuchaytirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. She'riyat va dramatik asarlar orqali talabalar nafaqat grammatikani o'rganadilar, balki tilni chuqur his qilish, obraz yaratish va o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadilar. (Boboyorov, 2024)

Yozish ham til ko'nikmalari ichida eng murakkablaridan biri. Yozish o'z ichiga ko'plab komponentlarni oladi. Yozishga o'rgatish o'qituvchilarning eng muhim vazifalardan biri, chunki yozishda imlo qoidalari, grammatika, leksik mazmun, fikrlarning mantiqiy ketma ketligi kabi tilning bir qator muhim jihatlari namoyon bo'ladi. Ingliz tili o'zbek tilidan grammatik qurilishi, mazmuni, imlo va talaffuz qoidalari kabi bir qancha taraflari bilan farq qilgani uchun uni o'rga-nish biroz qiyinchilik tug'dirishi aniq. Ingliz tilida 26 harf va 44 tovush borligining o'zi so'z-larni to'g'ri yozishni o'rganishni ancha qiyinlashtirib yuboradi. Yozish bu tilning grafologik va grammatik qurilishini aks ettiruvchi ko'rgazma vositasidir. 2 Shu ma'noda, o'quvchilar yozish jarayonida foydalanmoqchi bo'lgan grammatik qurilmalari, so'z va iboralari va grafik tizimi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bu tasavvurni esa o'qituvchi yordamida, ko'p ishlash natijasidagina shakllantirish mumkin. Zamonaviy dunyoda aksariyat yozishmalar elektron tarzda amalga oshirilmoqda. Shunday bo'lsada, ko'pchilik imtihonlar qo'l bilan yozish orqali olinmoqda. Ya'ni, imtihonlarning yozuv qismlari, frantsuz yozuvchisi Volter aytganidek, "Tovushlarni chizish" orqali amalga oshirilmoqda. Sir emaski, bugunki kunda yoshlar yozish bilan kam shug'ullanishmoqda, chunki ularning qo'llarida tayyor matnlar va bir zumda olsa bo'ladigan javoblar bilan ta'minlaydigan, internetga ulangan smartfonlar va boshqa elektron qurilmalar mavjud. Ular o'z qimmatli vaqtlarini yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga emas, balki o'z-galar qilgan (yozgan) ishlarni qidirishga sarf-lashmoqda. Shunisi ham ayonki, yozish ko'nikmalari yaxshi shakllangan o'quvchilar o'z mustaqil fikr-larini bildirish va ko'zlagan maqsadlariga erishishda boshqalarga qaraganda muvaffaqiyatliroq bo'lishadi. (Hadfield, 2006)

Insho, avvalo, tafakkur mashqlaridir. Insho yozishning asosiy maqsadlaridan biri talabalarni mustaqil fikrlash, muayyan mavzu doirada fikr yuritish, o'z fikrlarini erkin mantiqiy izchil, chiroyli, savodli ifodalashga o'rgatishdir. Insho yozishda talaba ifodalar jamg'armasini yig'adi, shuningdek, o'zi uchun notanish yangi jummalarni, so'zning yangidan-yangi ma'no ifodalash imkoniyatlarini qidirib topish va qo'llash orqali so'z boyligini orttirib boradi. Odatda, rusiyzabon talabalarining ko'pchiligi ruscha fikrlab, o'zbekcha nutq so'zlaydi. Agar inshoga e'tibor maktab bosqichidanoq kuchaytirilsa, insho uchun tanlangan mavzular qiziqarli va xilma-xil bo'lsa, bu o'quvchi-talabalar nutqini o'stirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Insho o'quvchining lug'at zahirasi boyitadi, tafakkurni rivojlantiradi. Ushbu omillarsiz rusiyzabon talabalar o'zbek tilida ravon va xatosiz gapira olmaydilar. Ular borliqni o'zbekcha tafakkur bilan qabul qila olib, o'zbekning ko'zi bilan ko'ra olsagina, o'zbekcha fikrlashi, o'zbek tilida erkin so'zlay olishi mumkin. Shu bois ularni o'zbek tiliga o'rgatish uchun ta'lim jarayonida insho yozdirishga katta e'tibor berish maqsadga muvofiq. To'g'ri, darslarda o'quvchi-talabalarga "Taassurotlaringiz asosida ijodiy ish yozing", "Biror mavzu asosida ijodiy ish yozing", "Taassurotlaringizni so'zlab bering" kabi topshiriqlar ko'p beriladi. Biroq o'quvchi-talabalar tomonidan bajarib kelinadigan ushbu ijodiy ishlar, uy insholarini tahlil qilib chiqish shuni ko'rsatdiki, ular aksariyat hollarda deyarli bir xil yoziladi. Ushbu insholarining ko'pchiligi 5-6 gapdan 7-8 gapgacha bo'lgan hajmdagi eng sodda konstruksiyali gaplardan tuziladi. Buning boisi, avvalo, mavzularning deyarli bir xil berilishida. Chunonchi, "Mening Vatanim", "Mening oilam", "Birinchi ustozim", "Men tanlagan kasb", "Men sevgan qahramon" kabi mavzular umumiy o'rta ta'lim bosqichida ham, keyingi ta'lim bosqichlarida ham takrorlanib kelaveradi. Bu esa, albatta, o'quvchi-talabalarining qiziqishlarini so'ndiradi, ulardagi tafakkur, fikrlash jarayonini ham to'xtatib qo'yadi. E'tibor bilan qaraydigan bo'lsak, birinchi sinfga qadam qo'ygan o'quvchi (birinchi bosqichga qabul qilingan talaba ham) ta'lim dargohiga katta bir qiziqish, yuksak bir ishonch bilan kirib keladi. U har bir fandan, har bir darsdan yangilik kutadi. O'qituvchi o'z fani bo'yicha beriladigan bilim va

malakalarni sinfma-sinf, bosqichma-bosqich rivojlantirib borsa, ana shu qiziqish so‘nmaydi, aksincha kuchayib boraveradi. Shu bois o‘quvchi talabalarga ijodiy ishlar berishda, bayon va insholar yozdirishda ushbu erkin mavzularning sayqallashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Yuqori bosqichlarga chiqqan sari inshoning tasviriy, qiyosiy, muhokama insho turlarini tatbiq etish, o‘quvchi-talabalarning ko‘rgan, bilgan, eshitgan, o‘qiganlarini qiyosiy tahlil etishga, o‘zi muhokama qilishga o‘rgatib borish kerak bo‘ladi. Ularning o‘zbek tilida bemalol fikrlashi, erkin muloqot qilishi, turli uslublarda bog‘lanishli matnlar tuzish va gapirib berish malakalarini shakllantirish uchun ko‘proq adabiy o‘qish materiallariga, ijtimoiy, milliy-ma‘naviy qadriyatlarimizni aks ettiruvchi mavzularga o‘quvchi-talabalarning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda bosqichma-bosqich kengaytirib, murakkablashtirib borish ularning fikrlash hamda qiziqish doirasining ham kengayib borishiga, shunga mos holda lug‘at boyligining o‘sib borishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tilining dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni va nufuzi ortib borar ekan, uni bizning vatanimizda ham zamon talabida o‘rganilishini yo‘lga qo‘yish kerak. Bunda ingliz tilini o‘rganishda asosiy o‘rin egallaydigan to‘rt malakaning har biri-ni to‘laqonli o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu malakalar tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozishlardir va tilni samarali o‘zlashtirish ularning barchasini rivojlantirish talab qilinadi. Til ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonini bir tizimga solib loyihalashtirish va rejalashtirish, buning uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan xorijiy til o‘qituvchilarini tayyorlashni taqozo etadi. Ijodiy yozuv talabalar uchun faqatgina til o‘rganish vositasi emas, balki ular uchun ijodiy fikrlash, mustaqil o‘ylash va o‘z fikrini aniq ifodalash imkoniyatini ham taqdim etadi. Ijodiy yozuv bilan muntazam shug‘ullanish natijasida talabalar nafaqat yozma, balki og‘zaki nutq sohasida ham ancha yuksalishadi. Shunday ekan, ijodiy yozuvga katta e‘tibor qaratish talabalar til ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishning eng yaxshi usullaridan biri hisoblanadi.

Adabiyorlar ro‘yxati:

1. "Yangi O‘zbekiston" gazetasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining parlamentga Murojaati. 2020 yil 30 dekabr soni.
2. Vandergrift L. (2003). Orchestrating Strategy Use: Toward a Model of the Skilled Second Language Listener. *Language Learning*, 53, 463-496.
<http://dx.doi.org/10.1111/1467-9922.00232>
3. Hadfield J. *Intermediate Communicative Games*. Edinburg: Addison Wesley Longman Ltd.
4. Flowerdew, J., Miller, L. On the Notion of Culture in Second Language Lectures. *Tesol quarterly* 29 (2). Ja-nuary 1995.La
5. Boboyorov Sirojiddin "Science and innovation" Volum 3 Issue 10 october (2024)